# MASALCHILIKNING TARIXIY VA ZAMONAVIY TARAQQIYOTI

**Tursunmuratova Ruxshona Qamaritdin qizi**
*Hammualliflar* : **Absatova Charos Asad qizi**
**Irisova Bahora Xusniddin qizi**
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabalari*
*Ilmiy rahbar*:**Usarova Laylo Ibragimovna**

**Annotatsiya**: *Ushbu maqolada masalchilikning tadrijiy tarixi va zamonaviy ko'rinishlarning o'zaro taqqoslanish ta'sviri haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Masalchilik, obraz, zamonaviylik, yumor, izchilik, pand-nasihat, janr, m'ajoz.*

Masal – Insoning xarakteri hamda hayotida kechadigan voqea-hodisalarning ma'joziy ko'rinishidagi shaklidir. Aabiyotda Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyot kafedrasi o'qituvchisi

masal sodda, tili ravon, xalq tomonidan yaratilgan ijod mahsuli bo'lib nasriy va she'riy usuda yozilgan janr turlaridan biridir. Masal ifoda jihatidan qiziqarli , ammo murakkab janrlardan biri hisoblanadi. Masalchilik janri o'zining tadrijiy tarixiga ega. U boshqa janrlardan o'git ,pand-nasihatlarga boyligi, yumor o'z o'rnida esa satira va ramziy obrazlarning ustunligi bilan ajralib turadi.

"Masal , bu – insoyatning jonvorlar haqidagi ilk ibtidoiy ertaklari bilan ulardan ancha keyin paydo bo'lgan maqol, matal va zamonaviy latifalar orasidagi muhim bir ma'joziy bekatdir. Uning yoshi ming yillar bilan o'lchanadi" .[1.B:101].

Masalchilik davr nuqtai nazaridan qaraganda tarixiy masallarda toj-u taxt uchun kurashlar va buning natijasida yurt vayron bo'lishi hamda qora xalqning qismati mansabdor kishilar tomonidan zulm ostiga olinishi yorqin va bo'yoqdor so'zlar orqali ifodalanib qolmasdan majoziy ruhda yaratiladi. Xuddi shunday asarlardan biri Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridir. Bu asar Gulxaniyga katta shuhrat keltirgan .Unda hayotning dolzarb muammolari turli odamlar o'rtasidagi munosabatlar xalq turmush tarzi va udumlari haqida ma'joziy uslubda so'z yuritiladi. Gulxaniy asarda qizim senga aytaman ,kelinim sen eshit qabilida qushlar misolida o'z davri voqeligi manzaralarini ma'joziy ruhda ta'svirlaydi.[2.B:48].

Masalchilik taraqqiyotida zamonaviy masallarning ham o'rni beqiyos.Zamonaviy masalning tarixiy masallardan farqi shundaki, uning syujeti bugungi kun voqea-hodisalari bilan bog'liq hisoblanadi. O'xshaslik jihati esa obrazlar har ikkisida ham ma'joziy shaklda bo'ladi.Ma'joziy obrazlardan foydalanish

b masalning qiymatini oshiradi. Zamonaviy masalchilikda fransuz yozuvchisi Lafonten hamda rus yozuvchisi Krilovlar hissasi beqiyosdir.Inson hayotiga zamonaviy masalning ham tarixiy masalning ham ta'siri ahamyatlidir.

Xulosa qilib aytish joizki, tarixiy ruhdagi hamda zamonaviy ruhdagi yaratilgan masallarning ahamiyati inson hayotidagi o'rni beqiyos hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Igor Klex .Masalning xazina dunyosi (Tarj.M. Xudoyqulov). – T.: Jahon adabiyoti,3/2020(274).

2.Ahmedov,Sunnat. Adabiyot[Matn]Q. 2./ S.Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh.Rzayev. – Toshkent : ”Ma'naviyat”,2017 – 160.